

Özbekistanyñ binalaryndan

taryhy

Category: Kitapcy, Taryhy yerler

написано kitapcy | 23 января, 2025

Özbekistanyñ taryhy binalaryndan ■ Tillo Shayx masjidi

Masjid 1890 yilda iymon-e'tiqodli, taqvodor Tillo Shayx ota ismli savdogar tomonidan qurdirilgan. U Xitoydan qo'ylar olib kelib sotish bilan shug'ullanib, bir yillik foydasidan ushbu masjidni qurdirib, mo'min-musulmonlarga in'om qilgan ekan. Ro'baro'da Baroqxon madrasasi joylashgan bo'lib, bu ikki yodgorlik sal shimolroqda qurilgan Qaffoli Shoshiy maqbarasi bilan birgalikda ko'p zamonlar Hazrati Imom (Hastimom) mahallasining guzari va eng ko'rkam joyi hisoblangan.

■ O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi

«Tillo Shayx» masjidi yonida joylashgan «Mo'yi Muborak» deb nom olgan qadimgi binoda 1943 yili kutubxona tashkil etildi. Diniy idora raisi muftiy shayx Eshon Boboxon shaxsiy kutubxonasidan mingdan ortiq qo'lyozma kitoblarni taqdim etgan. Hozir kutubxonada 25 mingdan ziyod turli qo'lyozma va bosma asarlardan iborat ulkan xazina saqlanmoqda. Xazinadagi kitoblarning eng nodiri va qimmatlisi Hazrati Usmon (r.a.) davrlarida qadimiy arab xatida yozib sahifalangan Qur'oni karimdir. Kutubxona hamma vaqt ilm toliblari, mehmonlar, xorijlik sayyohlar bilan gavjum.,

O'zbekiston musulmonlari idorasi – O'zbekiston musulmonlariga rahbarlik qiluvchi diniy tashkilot. 1943 yil 20 oktyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari qurultoyida ta'sis etilgan. Toshkentdagi Baroqxon madrasasida joylashgan. Bu tashkilot 1992 yildan Movarounnahr musulmonlari idorasi, deb yuritilgan, 1996 yildan hozirgi nomi bilan ataladi. U davlatdan ajralgan mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Idora O'zbekistondagi musulmonlar

o'rtasida diniy ishlarni boshqarib turadi, fatvolar beradi, masjidlarga imom-xatiblar tayinlaydi, diniy xodimlar tayyorlaydi. Moddiy jihatdan musulmonlardan masjidlarga tushadigan xayr-ehson, yordamchi xo'jaliklar va boshqalar hisobiga ta'minlanadi. Idora rahbar organi – Oliy hay'at. Uning raisi muftiy hisoblanadi. Idoraning huquqshunoslik, xalqaro aloqalar, ta'lim va kadrlar tayyorlash, masjidlar va fatvo bo'limlari bor. Toshkentdagi Imom Buxoriy nomidagi islom institutida (1971) va o'nta o'rta maxsus islom bilim yurti (shulardan 2 tasi xotin-qizlar bilim yurti)da kadrlar yetishtiriladi. Idora muassisligida «Hidoyat» jur. va «Islom nuri» gaz. nashr etiladi. Idora tasarrufidagi «Movarounnahr» nashriyoti diniy adabiyotlar, diniy taqvim va boshqalarni chop etadi. Musulmonlar idorasi xorijiy mamlakatlardagi ko'pgina diniy tashkilotlar bilan aloqa qiladi. Har yili 3,5–4 ming kishining haj safarini uyushtirishda faol ishtirok etadi. Idora o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunga rioya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida»gi 2003 yil 22 avg .dagi 364-son qaroriga asosan idora qoshida maxsus jamg'arma tashkil etildi. U islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini asrash, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni diniy aqidaparastlik va ekstremizm xataridan himoya qilish, mamlakatimizda ijtimoiyma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish hamda din sohasidagi ma'naviyma'rifiy va ta'lim ishlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Idoraga turli yillarda Eshon Boboxon Abdumajidxon o'g'li (1943– 1957), Ziyovuddinxon Boboxonov (1957–1982), Shamsuddinxon Boboxonov (1982–1989), Muhammadsodiq Muhammadyusuf (1989–1993), Muxtorjon Abdullayev (1993–1997) raislik qilgan. Abdurashid qori Bahromov 1997 yildan raisdir.

■ Chashmai Ayyub maqbarasi

Buxorodagi o'rta asrlar me'morchiligining alohida xususiyati – ko'cha yoki maydon bilan bir-biridan ajralib turgan va old yuzasi, darvozalari bilan bir-biriga qarab turgan ikkita ulkan inshootdan iborat bo'lgan majmualarning barpo etilishi edi. Shu asosda shaharning markaziy me'morchilik majmuasi yaratilgan – Poi Kalon («Ulkan inshoot osti») maydoni. Uning minorasi gumbazli o'tish yo'li bilan benihoya ulkan juma masjidi – Masjidi Kalon bilan bog'langan. Uning qarshisida XVI asrning boshida hatto bizning davrimizda ham ishlayotgan Mir-Arab madrasasi barpo etilgan.

■ Baroqxon madrasasi

Baroqxon madrasasi – Toshkentda qurilgan Madrasa (1531/32 – 16-a. 2-yarmi). Hovli atrofida hujralar va ichki tarafida peshtoq bo'lib, madrasaning g'arbiy qismi birmuncha oldinga chiqqan. Poydevori toshdan, qalin devorlari turli hajmdagi pishiq g'ishtdan ishlangan. Ba'zi joylari sinchli. Baroqxon madrasasi o'rnida dastlab 2 (katta va kichik) maqbara bo'lgan. Kichik maqbarada Baroqxon qabri bor. Uning to'rt tomonidagi eshiklaridan uchitasi keyinroq berkitib tashlangan (qolgan eshikdan zina bilan tomga chiqilgan). 1904 y.da masjidga aylantirilgan katta maqbarada Toshkent hokimi Suyunchxo'ja qabri joylashgan. Baroqxon ikki maqbarani o'z ichiga olgan Madrasa qurdirgan. Madrasaning sharq tomonidagi ulkan peshtoqqa rang-barang sirkor g'ishtchalardan namoyon terilgan. U handasiy va girih naqshlar bilan hoshiyalangan. Peshtoqning yuqori qismi saqlanmagan. Asosiy peshtoqning orqa tomonida yana peshtoq va besh qirrali ravoq bor. G'arb tomondagi ichki peshtoq ko'k gumbazning tarkibiy qismi bo'lgan. Baroqxon madrasasining to'rt burchagida cho'ziq xona (qorixona)lar bo'lgan. Bino shakli va bezaklari o'z holicha qolgan. Uning 22 m li gumbazi ko'k sirkor g'ishtchalar bilan pardozlangan (gumbaz 1868 y.gi zilzila paytida qulab tushgan). Gumbaz ostidagi 4,5 m li poygumbazga turli rangdagi sirkor g'ishtchalardan handasiy va girih naqshlar terib yaratilgan, Qur'on suralari bitilgan. Maqbara ichki qismidagi bezaklar

keyinchalik ko'chib tushgan. Ichki devorning tepa qismida ganchdan ishlangan naqshlar bo'lib, ularga oltin suvi yugurtirilgan, pastki qismida olti burchakli sopollardan terilgan keng izora bor (ular yashil sirkor, zarhalli g'ishtchalar bilan ajratilgan). 20-a. boshlaridagi ta'mir vaqtida qad. bezaklarning qoldig'i ko'chirib tashlanib, oq ganch bilan suvalgan. Baroqxon madrasasi naqshlarining go'zalligi, qurilish uslubi jihatidan Samarqandning eng yaxshi me'moriy yodgorliklari (15-a. ikkinchi yarmidagi Oq saroy va Ishratxona)ga yaqinlashadi. 1946, 1949, 1951, 1967 y.larda ta'mir ishlari olib borilgan. Baroqxon madrasasida O'zbekiston Musulmonlari idorasi joylashgan.

tarix.uz Taryhy yerler